



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

IJTIMOIIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

2021/6 (1)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash va gender tengligiga
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon Azamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайбергеневич – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содиқова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зоҳидов Азаматджон Азамович – *доктор экономических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

MAHALLA VA MENEJMENT

Narbayeva T.K. Ayollarni har tomonlama himoya qilish jamiyatning muhim vazifasiga aylandi	4
Qodirxonova M.A. O‘zbekistonda zo‘ravonlikka qarshi kurash: xalqaro tajriba va yechim.....	10
Egamberdiyeva N.M. Mahalla va oila institutlarining mustahkamligi jamiyat farovonligi kafolatidir	18
Musurmanova A.M. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari rahbarlarining kompetentligi – faoliyat samaradorligining omili.....	25
Atamuratov M.U. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida boshqaruv kadrlarining o‘zini o‘zi rivojlantirish tizimini joriy etish	35

JAMIYAT VA OILA

Ismailova Z.K. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish komponentlari.....	47
Abduramanov X.X. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlari	59

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Saydivaliyeva X.X. Xotin-qizlarning huquqlarini ta’minlash – ularning huquqiy madaniyatini shakllantirishning muhim omili	71
Xoliqova M.K. Zamonaviy ilmiy paradigma konteksti hamda XXI asr kompetensiyalari tizimida gender sensitivlik.....	80
Каримова Д.М. Социологический «портрет» женской безработицы в условиях пандемии (на примере Узбекистана)	94

IJTIMOY PSIXOLOGIYA

Shoumarov G‘.B. Sharqona qadriyatlar va islom dinida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari.....	105
Alimardonov Z.Sh. O‘smirlik davrida deviant xulq-atvor shakllanishiga muammoli oilalarning ta’siri.....	112
Abdusamatov X. Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	121

IJTIMOY PEDAGOGIKA

Reves I. Ruziyeva G. Родительская компетентность как педагогическая проблема	131
Baratova Sh., Zoxitova N. Structure and content of career guidance system in USA...	140

YOSH TADQIQOTCHILAR MINBARI

Nabiyeva O.R. Reproduktiv yoshdagi ayollarda kayfiyat o‘zgarishining sabablari va ijtimoiy-psixologik determinantlari	147
--	-----



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,
*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor*

MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING MUSTAHKAMLIGI JAMIYAT FAROVONLIGI KAFOLATIDIR

Аннотация. *Mazkur maqolada oilalar mustahkamligini ta'minlash, shuningdek, zamonaviy, farovon oila va farovon mahallani rivojlantirish borasida mamalakatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar batafsil yoritib berilgan. Shu bilan birga, maqolada Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida tuzilgan “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ham o'z aksini topgan.*

Аннотация. *В этой статье подробно рассказывается о масштабных реформах, проводимых в нашей стране для обеспечения прочности семей, а также развития современной, благополучной семьи и махалли. В статье также отражена работа, проделанная Научно-исследовательским институтом «Махалля и семья» при Министерстве по поддержке махалли и семьи.*

Annotation. *This article details the large-scale reforms being implemented in our country to ensure the strength of families, as well as the development of modern, prosperous family and makhalla. The article also reflects the work of the Research Institute «Mahalla and Family» under the Ministry of Mahalla and Family Support.*

Kalit so'zlar: *oila, farovon oila, oila instituti, mahalla, mahalla instituti.*

Ключевые слова: *семья, обеспеченная семья, институт семьи, махалля, институт махалли.*

Key words: *family, prosperous family, family institute, makhalla, institute of makhalla.*

Kirish. O‘zbek xalqida azal-azaldan shakllanib kelgan, hayotimizda chuqur o‘rin egallab, oliy qadriyatlar darajasida e‘tirof etiluvchi ijtimoiy institutlar sifatida mahalla va oila alohida ajralib turadi. Insonlarni birlashtirib turuvchi, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila hamda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqaruvining sharqona ko‘rinishi hisoblanuvchi mahallada ma‘naviy muhitning barqarorligi, sog‘lom munosabatlar tizimining shakllangani hamda farovonligi butun jamiyatning taraqqiyotini, buguni va ertasini belgilab beradi.

So‘nggi yillarda yurtimizda mahalla va oila institutlarini mustahkamlash, ijtimoiy nufuzini yanada oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, ushbu sohada tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Oila – murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lib, ijtimoiy hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligi va tarbiyaning uzluksizligini ta‘minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon hisoblanadi. Oila erkak va ayol o‘rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan ijtimoiy institutdir. Farovon oila – er-xotinning bir-biri va bolalariga nisbatan o‘zaro majburiyatlarini to‘liq va aniq anglagan holda bajariladigan, jamiyatda o‘rnatilgan axloqiy me‘yor va qoidalari qo‘llab-quvvatlanadigan, o‘zini moddiy jihatdan ta‘minlay oladigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga yetkazib beradigan va uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruh sanaladi. Farovon oila tushunchasi oila a‘zolarining yetarli darajada qondiradigan ish, daromad, uy-joyga ega bo‘lishi hamda reproduktiv, tibbiy, ta‘lim, maishiy, madaniy ehtiyojlarining qondirilishi, sog‘lom turmush tarzini yuritishga asoslanishi bilan tavsiflanadi.

Oilada tinchlik, oila a‘zolarining bir-biriga o‘zaro mehr-oqibatli va murosali bo‘lishi, hurmat hamda e‘tiborni saqlab qolishi, shuningdek, kelajak avlodni tarbiya qilishda oiladagi sog‘lom muhitni asrashi birlamchi zarurat hisoblanadi. Oilalarda sog‘lom muhitning ta‘minlanishiga va oila a‘zolarining bir-birlariga o‘zaro ijobiy his-tuyg‘ulari asosidagi munosabatiga to‘sqinlik qiluvchi omillar mavjudki, ularni bartaraf etishda zamonaviy usullarni qo‘llash zarurati ortmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Mamlakatning bugungi rivojlanish bosqichida zamonaviy tendensiyalar va globallashuv jarayonlarining jadallashuvida oila institutining ustuvor mavqeyi va muqaddas

O‘zbek xalqida azal-azaldan shakllanib kelgan, hayotimizda chuqur o‘rin egallab, oliy qadriyatlar darajasida e‘tirof etiluvchi ijtimoiy institutlar sifatida mahalla va oila alohida ajralib turadi.

o‘rnini mustahkamlash maqsadida oila instituti bilan bog‘liq muammolarni tizimli bartaraf etish va bu boradagi milliy qonunchilikni takomillashitirishning ahamiyati tobora ortib, baxtli va farovon oila bugungi jamiyatimizning bosh g‘oyalardan biriga aylanib bormoqda.

So‘nggi 5 yilda jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilalarni yanada mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar va an‘analarni targ‘ib etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmoni jamiyatda va oilalarda sog‘lom, barqaror ijtimoiy-ma‘naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini samarali joriy etishni yangi bosqichga olib chiqdi.

Oilalarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruv organi – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.

Oilalarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruv organi – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.

Bunda asosiy e‘tibor yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va dolzarb masalalarning yechimi va chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilmoqda. Mamlakatimizda 2 milliondan ortiq yosh oilalar mavjud bo‘lib, ularning mustahkamligini ta‘minlash muhim masala hisoblanadi. “Oila – muqaddas”, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat”, “Oila – jamiyat va davlat himoyasida” va “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyalari asosida 2020-yil 31-dekabrda qabul qilingan “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 820-sonli qarori asosida Respublikaning 206 ta tuman (shahar)larida “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari” tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu markazlarda oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma‘naviy axloqiy qadriyatlar, oilalarda sog‘lom ma‘naviy-axloqiy muhitni yaratish va ibratli ota-ona bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishlarida o‘quv dasturlari olib borilmoqda.

Ijtimoiy ko‘makka muhtoj xotin-qizlar, ehtiyojmand oilalarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo‘g‘in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal “Mahallabay” hamda “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi maqsadli tizimlar joriy etildi. 2020-yilda “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati doirasida 800 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalarga 1 trillion so‘mdan ortiq moddiy yordam ko‘rsatildi. Shuningdek, “Har bir oila – tadbirkor” dasturining hayotga tatbiq etilishi bilan birgina 2020-yilning o‘zida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun deyarli 215 ming oilaga 6 trillion so‘mdan ziyod kredit mablag‘lari ajratildi.

Oilaviy tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar uchun “Himoya orderi” berish tartibining o‘rnatilishi ayollarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda katta siljish bo‘ldi.

Mahalla fuqarolar yig‘inlarida oilalardagi nizo, ziddiyat, tazyiq, notinchlik hamda ajrimlarning oldini olish maqsadida Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari tashkil etildi.

Mamlakatimizda 15-may – “Xalqaro oila kuni” sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Har bir mahallada haftaning shanba kuni “Ahil oila kuni” deb e‘lon qilindi.

Oila institutining barqaror holati, uning demografik va asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari jamiyatning farovonlik darajasini belgilaydi, uning mustahkamligi esa mahallaning mustahkamligiga xizmat qiladi. Mahalla instituti fuqarolar o‘zini o‘zi boshqaruvining o‘ziga xos shakli, serqirra ijtimoiy tuzilmasi bo‘lib, bugungi kunda mamlakatimizda mahalla institutini ham mustahkamlash, ijtimoiy nufuzini ko‘tarish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zero, mamlakatimiz Prezidenti ta‘kidlaganlaridek, “Mahalla xalq bilan davlat o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lishi kerak. Odamlarning quvonch-u tashvishidan doimo xabardor bo‘lish mahallaning asosiy vazifasidir”¹.

Xususan, Respublikamizda mavjud 9 mingdan ortiq mahallalar faoliyatini takomillashtirish maqsadida uning huquqiy asoslari mustahkamlanib, mavjud mexanizmlar takomillashtirildi. “Obod mahalla” dasturi² qabul qilinib, ushbu dastur doirasida mahallalarda qurilish, ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Har bir mahallada o‘z ichiga mahalla guzarini, tibbiyot maskanlari negizida arzon dorixonalarni, zarur maishiy xizmat va servis shoxobchalarini,

Oila institutining barqaror holati, uning demografik va asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari jamiyatning farovonlik darajasini belgilaydi, uning mustahkamligi esa mahallaning mustahkamligiga xizmat qiladi.

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/409>

² “Обод маҳалла” дастури тўғрисида”ги ПФ-5467-сон Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. // <https://lex.uz/docs/3797772>

**2019-yilning o'zida
“Obod qishloq” va
“Obod mahalla”
dasturlari
doirasida 479 ta
qishloq va ovulda,
shaharlardagi 116
ta mahallada keng
ko‘lamli qurilish,
ta’irlash va
obodonlashtirish
ishlari amalga
oshirildi.**

bolalar maydonchasi hamda kichik istirohat bog‘ini qamrab oladigan “mahalla markazi”ni barpo etishga e’tibor qaratildi. 2019-yilning o‘zida “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Bunga 6,1 trillion so‘m yoki 2018-yilga nisbatan 1,5 trillion so‘m ko‘p mablag‘ sarflandi³. 2020-yilning yakuniga kelib, ushbu dasturlar doirasida 5 millionga yaqin aholi yashaydigan 1 ming 200 ta mahalla va qishloqlar qiyofasi tubdan o‘zgardi⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmoni hamda 2020-yil 18-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4602-sonli qarori asosida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etildi. Bu orqali jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish yo‘lida katta qadam qo‘yildi.

Mahallalarning ishlash tizimi mutlaqo qaytadan yo‘lga qo‘yilib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida quyidagi 4 ta Komissiya joriy etildi:

- ◆ oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi;
- ◆ xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha komissiya;
- ◆ ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo‘yicha komissiya;
- ◆ ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiya.

Mahalla tizimida ishlayotgan xodimlarni rag‘batlantirishning yangi mexanizmi joriy etildi. 2020-yildan boshlab 22-mart – Mahalla tizimi xodimlari kuni sifatida nishonlana boshlandi⁵. Mahalla fuqarolar

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

⁵ “Маҳалла тизими ходимлари кунини белгилаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. 2020 йил 2 март. ЎРҚ-606-сон // <https://lex.uz/docs/-4751676>

yig'inlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlariga munosib hissa qo'shib kelayotgan faol, tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillarini taqdirlash maqsadida "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni ta'asis etildi⁶. Murojaatlar bilan ishlash, aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha hamkorlik qilishning yangi tamoyili asosida "mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla" tizimi ishga tushdi. Bularning barchasi bugungi kunda mahalla tizimining faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, obod va xavfsiz mahalla qurish uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda mahalla va oila institutlarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda bu sohada innovatsion tadqiqotlarni olib borish va ilmiy asoslangan tarzda chora-tadbirlarni belgilash muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy hayot, uning barqarorligi, rivojlanish tendensiyasi va muammolarini ilmiy-amaliy tadqiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 367-sonli qarori bilan "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Mazkur qarorda institutning 7 ta asosiy faoliyat yo'nalishi bo'yicha ishlar amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, bugungi kunga kelib mazkur yo'nalishlarda institutimizda qator ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar bajarib kelinmoqda.

Mazkur amaliy ishlar qatorida institut tomonidan 50 ta qisqa muddatli ilmiy-amaliy loyihalar bajarildi. "Oila, mahalla va gender tengligi" mavzusida badiiy asarlarning elektron korpusi (<http://uzbekcorpus.uz>) yaratildi. Ushbu dasturiy ta'minot kitobxonlikni keng targ'ib qilish, o'quvchilar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun qulayliklar yaratishga mo'ljallangan. Fuqarolar yig'ini xodimlari tomonidan aholi murojaatlari, muammolarini o'rganish va bartaraf etish jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida "Mahalla" mobil ilovasi yaratildi (<https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.mahalla.app>). "Baxtiyor oila" (<https://baxtiyor-oila.uz>) veb-portali ishga tushirildi, unda oila institutini mustahkamlashga oid ma'lumotlar va targ'ibot materiallari, sog'lom avlodni tarbiyalash, oilalarning demografik xulq-atvoriga xos xizmatlar haqida ma'lumotlar joylashtirildi.

Mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda namunali o'zbek oilasi hamda mahalla institutlarini keng targ'ib qilish maqsadida o'zbek, rus va ingliz tillarida ilk marotaba "Oila ma'naviyati konseptiga doir elektron

Bugungi kunda mahalla va oila institutlarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda bu sohada innovatsion tadqiqotlarni olib borish va ilmiy asoslangan tarzda chora-tadbirlarni belgilash muhimdir.

⁶ "Маҳалла ифтихори" кўкрак нишонини таъсис этиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПК-3132-сон қарори. // <https://lex.uz/docs/3266714>

“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «МАХАЛЛЯ И СЕМЬЯ»
“MAKHALLA AND FAMILY” RESEARCH INSTITUTE

IJTIMOIY BOSHQARUV

СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ

SOCIAL MANAGEMENT

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2021

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash va gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality*

MUASSIS:

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Namozova O‘.,**
Razzakova N., Sobirova E.
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallaridan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.11.2021.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 5,1.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangiheyot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.